

2023- yil yanvar-iyun oylari uchun
dastlabki ma'lumot



QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(75) 221-44-28



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Qashqadaryoda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-iyun oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **2 96430,8 ming AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **2 92745,7 ming AQSH** dollariga yoki **1,3 %** ga kupaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-iyun oylarida ming AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **2 96430,8** +1,3 %
(2022- y.: 2 92745,7)



Saldo

2023- y.: **95017,4**
(2022 y.: 16713,1)



Eksport

2023- y.: **1 95724,1** +26,5 %
(2022- y.: 1 54729,4)



Tovarlarni: **193494,1**



Xizmatlar: **2230,0**



Import

2023- y.: **1 00706,7** -27,0 %
(2022- y.: 1 38016,3)



Tovarlarni: **99521,7**



Xizmatlar: **1185,0**






Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.






TSAda eksport hajmi **1 95724,1** ming AQSH dollariga (**26,5 %** ga ko‘paydi) va import hajmi **1 00706,7** ming AQSH dollariga (**27,0 %** ga kamaydi).

Hisobot davrida **9 5017,4** ming AQSH dollari qiymatida aktiv tashqi savdo balansi qayd etildi.




**QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA
ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR**
(2023- yil yanvar-iyun oylarida ming AQSH dollari)

Turkiya	Rossiya Federatsiyasi	XXR	BAA	Qozog‘iston
TSA – 62902,6	TSA – 43883,4	TSA – 43551,3	TSA – 25778,2	TSA – 19019,6
Eksport:53428,3 Import:9474,3	Eksport:33342,4 Import:10541,0	Eksport:10953,0 Import:32598,3	Eksport:25748,5 Import: 29,7	Eksport:8404,4 Import:10615,2
 21,2 %	 14,8 %	 14,7 %	 8,7 %	 6,4 %

Pokiston	Polsha	Latviya	Qirg‘iz Respublikasi	Vetnam
TSA – 11988,7	TSA – 10106,6	TSA – 9282,4	TSA – 6106,8	TSA – 5992,8
Eksport:10983,8 Import: 1004,9	Eksport: 9311,8 Import: 794,8	Eksport: 65,1 Import: 9217,3	Eksport: 3487,7 Import: 2619,1	Eksport: 5930,5 Import: 62,3
 4,0 %	 3,4 %	 3,1 %	 2,1 %	 2,0 %

Qashqadaryo viloyati jahonning **64** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Turkiyada (**21,2 %**), Rossiya Federatsiyasida (**14,8 %**), XXRda (**14,7 %**), BAAda (**8,7 %**), Qozog‘istonda (**6,4 %**), Pokistonda (**4,0 %**) va Polshada (**3,4 %**) qayd etilgan.

 Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Qirg‘iz Respublikasi va Qozog‘iston kabi qo‘shni davlatlar bilan TSAda so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti.



TASHQI SAVDO PROFITSITI BO‘LGAN ASOSIY UCH DAVLAT

(2023- yil yanvar-iyun oylarida ming AQSH dollari)



Turkiya – 62902,6



Rossiya Federatsiyasi – 43883,4



BAA – 25778,2













Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan **12** ta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi va BAA davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **8** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



QASHQADARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-iyun oylarida ming AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Turkiya	61836,0	80125,7	62902,6
 <i>Eksport</i>	31261,3	59491,5	53428,3
<i>Import</i>	30574,7	20634,2	9474,3
Rossiya Federatsiyasi	27110,7	38686,7	43883,4
 <i>Eksport</i>	14975,5	24829,6	33342,4
<i>Import</i>	12135,2	13857,1	10541,0
XXR	43127,3	61309,4	43551,3
 <i>Eksport</i>	11245,2	12215,7	10953,0
<i>Import</i>	31882,1	49093,7	32598,3
BAA	812,1	698,5	25778,2
 <i>Eksport</i>	125,5	617,2	25748,5
<i>Import</i>	686,6	81,3	29,7
Qozog'iston	21241,8	12641,5	19019,6
 <i>Eksport</i>	10276,2	4272,7	8404,4
<i>Import</i>	10965,6	8368,8	10615,2
Pokiston	5092,9	4668,1	11988,7
 <i>Eksport</i>	4769,8	4483,3	10983,8
<i>Import</i>	323,1	184,8	1004,9
Polsha	2148,6	6914,5	10106,6
 <i>Eksport</i>	1928,3	5756,6	9311,8
<i>Import</i>	220,3	1157,9	794,8
Latviya	835,7	156,9	9282,4
 <i>Eksport</i>	55,1	102,0	65,1
<i>Import</i>	780,6	54,9	9217,3
Qirg'iz Respublikasi	5474,6	12124,1	6106,8
 <i>Eksport</i>	4333,6	9204,4	3487,7
<i>Import</i>	1141,0	2919,7	2619,1
Vetnam	-	1326,7	5992,8
 <i>Eksport</i>	-	1326,6	5930,5
<i>Import</i>	-	0,1	62,3

Davlatlar		2021- y.	2022- y.	2023- y.
	Misr	1475,2	990,6	6602,6
	<i>Eksport</i>	1475,2	990,6	6586,7
	<i>Import</i>	-	-	15,9
	Hindiston	1060,7	5827,4	5370,6
	<i>Eksport</i>	800,0	2998,4	4118,9
	<i>Import</i>	260,7	2829,0	1251,7
	Eron Islom Respublikasi	6896,9	13326,2	5794,9
	<i>Eksport</i>	4992,6	10233,3	4575,6
	<i>Import</i>	1904,3	3092,9	1219,3
	Germaniya	5339,5	12374,4	4258,3
	<i>Eksport</i>	4,6	1019,7	259,0
	<i>Import</i>	5335,0	11354,7	3999,3
	Koreya Respublikasi	2645,6	1975,3	3198,7
	<i>Eksport</i>	4,8	255,4	5,5
	<i>Import</i>	2640,8	1719,9	3193,2
	Litva	787,2	217,3	2781,6
	<i>Eksport</i>	185,2	-	-
	<i>Import</i>	602,1	217,3	2781,6
	Tojikiston	5037,7	2411,7	3091,4
	<i>Eksport</i>	4771,8	567,4	2795,6
	<i>Import</i>	265,9	1844,3	295,8
	Belarus Respublikasi	700,5	1216,3	2719,3
	<i>Eksport</i>	247,3	647,9	1150,3
	<i>Import</i>	453,2	568,4	1569,0
	Avg'oniston	9134,5	9168,1	4145,4
	<i>Eksport</i>	9123,7	8980,1	4077,2
	<i>Import</i>	10,8	188,0	68,2
	Italiya	1263,5	2227,9	2104,6
	<i>Eksport</i>	-	723,4	782,7
	<i>Import</i>	1263,5	1504,5	1321,9



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-iyun oylari)*

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qashqadaryo viloyati	296430,8	101,3	100,0
<i>hududlar:</i>			
G'uzor	13432,1	107,1	4,5
Dehqonobod	10552,7	181,1	3,6
Qamashi	7844,8	68,0	2,6
Qarshi	44266,3	58,2	14,9
Koson	15979,7	50,5	5,4
Kitob	17559,6	53,3	5,9
Mirishkor	6331,7	56,3	2,1
Muborak	3426,6	61,7	1,2
Nishon	48626,0	16,0 m.	16,4
Kasbi	59311,7	166,5	20,0
Ko'kdala	4355,2	18,4 m.	1,5
Chiroqchi	6101,4	97,4	2,1
Shahrisabz	4645,8	74,0	1,6
Yakkabog'	12588,5	149,6	4,2
Qarshi sh.	38243,3	94,1	12,9
Shahrisabz sh.	3126,6	64,7	1,1
Boshqalar	38,8	20,0	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari




ViLOYAT tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Kasbi tumani **20,0 %** ulush bilan **59311,7** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shahrisabz shahri **1,1 %** ulush bilan **3126,6** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Qashqadaryo viloyatining, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan.

QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyun oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **27,1** % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **8,6** % ga ko'paygan.



Qashqadaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-iyun oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **1,2** % ga kamaydi va jami TSA'dagi ulushi **72,9** % ni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-iyun oylari holatiga ko'ra, **78191,8** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **52272,9** ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **25918,9** ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



QASHQADARYO VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2023- yil yanvar-iyun oylarida ming AQSH dollari)

Rossiya

TSA – 43883,4
Eksport – 33342,4
Import – 10541,0



Qozog'iston

TSA – 19019,6
Eksport – 8404,4
Import – 10615,2



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 6106,8
Eksport – 3487,7
Import – 2619,1



Belarus Respublikasi

TSA – 2719,3
Eksport – 1150,3
Import – 1569,0



Tojikiston

TSA – 3091,4
Eksport – 2795,6
Import – 295,8



Ozarbajjon

TSA – 1308,2
Eksport – 1199,8
Import – 108,4



Moldova Respublikasi

TSA – 1497,2
Eksport – 1497,2
Import – 0,0



Ukraina


TSA – 565,9
Eksport – 395,5
Import – 170,4




Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**62,0** %), Qozog'iston (**15,6** %) hamda Qirg'iz Respublikasi (**6,5** %) davlatlari bilan qayd etildi.

QASHQADARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-iyun oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



 Qashqadaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **72424,0** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **47079,7** ming AQSH dollari, import hajmi esa **25344,3** ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



QASHQADARYO VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'lishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksport bop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **166** taga yetdi va ular tomonidan **53817,6** ming AQSH dollari qiymatini va (2022- yilning mos davriga nisbatan **24,3** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-iyun oylarida ulushi % da)



Qashqadaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-iyun oylari yillar kesimida)

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	154729,4	195724,1	142,2	126,5	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	16146,7	31119,7	87,2	192,7	10,4	15,9
Ichimliklar va tamaki	354,5	570,3	-	160,9	0,2	0,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3684,1	2037,4	2,5 m.	55,3	2,4	1,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	7577,2	28876,5	64,8	3,8 m.	4,9	14,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1015,8	82,3	89,9 m.	8,1	0,7	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	32,8	78,4	161,6	2,4 m.	-	0,1
Sanoat tovarlari	122705,1	126496,8	170,2	103,1	79,3	64,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	1098,8	3952,6	6,2 m.	3,6 m.	0,7	2,0
Turli xil tayyor buyumlar	127,7	7,3	4,1 m.	5,7	0,1	-
Boshqa tovarlar	-	272,8	-	-	-	0,1
Xizmatlar	1986,7	2230,0	42,0	112,2	1,3	1,1


Eksport tarkibida tovarlar ulushi **98,9 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**64,6 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**15,9 %**) va mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**14,8 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida MDH mamlakatlariga **53817,6** ming AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **27,5 %** ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyun oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari

2023- yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, BAA, Polsha, Pokiston, Misr va Hindiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **73,4 %** ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-iyun oylari % da)





QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-iyun oylari yillar kesimida)*

Davlatlar	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Turkiya	59491,5	53428,3	190,3	89,8	1	1
Rossiya Federatsiyasi	24829,6	33342,4	165,8	134,3	2	2
Birlashgan Arab Amirligi	617,2	25748,5	4,9 m.	41,7 m.	16	3
Pokiston	4483,3	10983,8	94,0	2,4 m.	8	4
Polsha	5756,6	9311,8	3,0 m.	161,8	7	6
Qozog'iston	4272,7	8404,4	11,2	196,7	9	7
XXR	12215,7	10953,0	108,6	89,7	3	5
Vetnam	1326,6	5930,5	-	4,5 m.	12	9
Misr	990,6	6586,7	67,2	6,6 m.	14	8
Hindiston	2998,4	4118,9	3,7 m.	137,4	10	11
Qirg'iz Respublikasi	9204,4	3487,7	2,1 m.	37,9	5	13
Eron Islom Respublikasi	10233,3	4575,6	2,0 m.	44,7	4	10
Afg'oniston	8980,1	4077,2	98,4	45,4	6	12
Tojikiston	567,4	2795,6	11,9	4,9 m.	17	14
Marokash	-	1355,3	-	-	-	16
Moldova Respublikasi	1575,5	1497,2	170,5	95,0	11	15
Belarus Respublikasi	647,9	1150,3	2,6 m.	177,5	15	18
Ozarbayjon	1126,5	1199,8	-	106,5	13	17
Turkmaniston	358,0	849,7	33,6	2,4 m.	18	19
Armaniston	58,2	694,9	4,4 m.	11,9 m.	19	20



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2023- yil yanvar-iyun oylari)*

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qashqadaryo viloyati	195724,1	126,5	100,0
<i>hududlar:</i>			
G'uzor	3105,7	56,3	1,6
Dehqonobod	6563,9	2,5 m.	3,4
Qamashi	5829,6	64,8	3,0
Qarshi	37256,6	69,5	19,0
Koson	14575,6	79,4	7,4
Kitob	5076,7	189,6	2,6
Mirishkor	4431,7	79,1	2,3
Muborak	2435,7	52,3	1,2
Nishon	36027,2	24,9 m.	18,4
Kasbi	50971,1	2,4 m.	26,1
Ko'kdala	4139,2	92,4 m.	2,1
Chiroqchi	5576,3	147,0	2,8
Shahrisabz	4272,1	106,0	2,2
Yakkabog'	3405,7	69,4	1,7
Qarshi sh.	11098,9	68,8	5,7
Shahrisabz sh.	919,3	98,9	0,5
Boshqalar	38,8	20,0	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Kasbi tumani **26,1 %** bilan **50971,1** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shahrisabz shahri **0,5 %** bilan **919,3** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.






To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2023- yil yanvar-iyun oylari yakuni bo‘yicha **124795,2 ming** AQSH dollari to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **63,8 %** ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan **5,4 %** ga ko‘paydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (**87,2 %**), tayyor to‘qimachilik mahsulotlari (**10,5 %**) asosiy ulushni egallagan.

TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-iyun oylarida ming AQSH dollari)

		2022- yil	2023- yil
Jami		118351,0	124795,2
	Ip kalava	101647,9	108883,7
	Tayyor to‘qimachilik mahsulotlari	14933,8	13062,7
	Trikotaj mato	846,4	1182,6
	Gazlamalar	922,9	1666,2
	Paypoq mahsulotlari	-	-

DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI *(yanvar-iyun oylarida ming AQSH dollari)*



		2022- yil	2023- yil	O‘shish sur‘ati, % da
	Turkiya	58925,9	53249,5	90,4
	Rossiya Federatsiyasi	15045,5	21850,6	145,2
	Polsha	5749,1	9136,5	158,9
	Misr	990,6	6586,7	6,6 m.
	Vetnam	1326,6	5930,5	4,5 m.
	Qirg‘iz Respublikasi	7515,7	2493,9	33,2
	XXR	10926,6	10415,9	95,3
	Marokash	-	1355,3	-
	Eron Respublikasi	8502,3	4243,2	49,9
	Tojikiston	156,2	1140,0	7,3 m.
	Moldova Respublikasi	1509,9	1497,2	99,2
	Belgiya	63,6	659,4	10,4 m.
	Bangladesh	-	551,5	-
	Pokiston	2443,8	597,8	24,5
	Boshqa davlatlar	5195,2	5087,2	97,9




Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to‘qimachilik bozoridagi ulushi oshib bormoqda.

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Turkiya (**42,7 % – 53249,5** ming AQSH dollari) va Rossiya Federatsiyasi (**17,5 % – 21850,6** ming AQSH dollari) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-iyun oylari ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **2230,0** ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **1,1** % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **12,2** % ga kupaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi boshqa xizmatlar (**52,8** %), transport (**28,0** %), boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (**17,8** %) va safarlar (turizm) (**1,4** %) hissasiga to'g'ri kelgan.



QASHQADARYO VILOYATINING IMPORTI



2023- yilning yanvar-iyun oylarida import hajmi **100706,7** ming AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **73,0** % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, sanoat tovarlari (**55,4** %), mashinalar va transport asbob- uskunalari (**12,9** %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**10,1** %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-iyun oylari ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **37309,6** ming AQSH dollariga kamaydi va **100706,7** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **1185,0** ming AQSH dollariga yetdi.




QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI *(yillar kesimida yanvar-iyun oylari holati)*

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami import	138016,3	100706,7	126,8	73,0	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	11217,6	10652,2	103,3	95,0	8,1	10,6
Ichimliklar va tamaki	-	33,7	-	-	-	-
Yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xomashyolar	839,1	758,5	68,1	90,4	0,6	0,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3889,4	4331,6	157,9	111,4	2,8	4,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	516,5	328,1	155,9	63,5	0,4	0,3
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	12445,0	10196,9	103,6	81,9	9,0	10,1
Sanoat tovarlari	89280,5	55841,1	116,7	62,5	64,7	55,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	15400,0	12952,3	180,7	84,1	11,2	12,9
Turli xil tayyor buyumlar	4277,9	4267,2	125,1	99,7	3,1	4,2
Boshqa tovarlar	143,2	160,1	-	111,8	0,1	0,2
Xizmatlar	7,1	1185,0	-	166,9 m.	-	1,2

2023- yil yanvar-iyun oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **26,4** % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **13,5** % ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyun oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari

2023- yil yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyati **53** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Latviya, Koreya Respublikasi va Qirg'iz Respublikasi) jami importning **77,8** % ni tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-iyun oylari % da)





QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI

(yillar kesimida yanvar-iyun oylari holati)

Davlatlar	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
XXR	49093,7	32598,3	154,0	66,4	1	1
Turkiya	20634,2	9474,2	67,5	45,9	2	4
Qozog'iston	8368,8	10615,2	76,3	126,8	5	2
Rossiya Federatsiyasi	13857,1	10541,0	114,2	76,1	3	3
Latviya	54,9	9217,3	7,0	167,9 m.	20	5
Germaniya	11354,7	3999,3	2,1 m.	35,2	4	6
Litva	217,3	2781,6	36,1	12,8 m.	18	8
Qirg'iz Respublikasi	2919,7	2619,1	2,5 m.	89,7	8	9
Koreya Respublikasi	1719,9	3193,2	65,1	185,7	10	7
Yaponiya	3397,2	1376,4	12,1 m.	40,5	6	12
Italiya	1504,5	1321,9	119,1	87,9	12	13
Belarus Respublikasi	568,4	1569,0	125,4	2,8 m.	15	10
Amerika Qo'shma Shtatlari	872,3	1468,8	108,6	168,4	14	11
Eron Islom Respublikasi	3092,9	1219,3	162,4	39,4	7	15
Pokiston	184,8	1004,9	57,2	5,4 m.	19	17
Hindiston	2829,0	1251,7	10,8 m.	44,2	9	14
Niderlandiya	1548,3	849,7	196,7	54,9	11	18
Kanada	498,1	1028,2	34,1	2,1 m.	16	16
Polsha	1157,9	794,8	5,2 m.	68,6	13	19
Fransiya	404,9	415,7	13,5	102,7	17	20



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar-iyun oylari)

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati , % da	Ulushi, % da
Qashqadaryo viloyati	100706,7	73,0	100,0
<i>hududlar:</i>			
G'uzor	10326,4	147,1	10,3
Dehqonobod	3988,8	122,5	4,0
Qamashi	2015,2	79,3	2,0
Qarshi	7009,7	31,3	7,0
Koson	1404,1	10,6	1,4
Kitob	12482,9	41,3	12,4
Mirishkor	1900,0	33,7	1,9
Muborak	990,9	110,9	1,0
Nishon	12598,8	7,9 m.	12,5
Kasbi	8340,6	58,2	8,3
Ko'kdala	216,0	112,4	0,2
Chiroqchi	525,1	21,2	0,5
Shahrisabz	373,7	16,6	0,4
Yakkabog'	9182,8	2,6 m.	9,1
Qarshi sh.	27144,4	110,8	27,0
Shahrisabz sh.	2207,3	56,6	2,2
Boshqalar	-	-	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Qarshi sh. 27144,4

Nishon 12598,8

Kitob 12482,9

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



Ko'kdala 216,0

Shahrisabz 373,7

Muborak 990,9

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Qarshi shahri **27,0 %** bilan **27144,4** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Ko'kdala tumani **0,2 %** bilan **216,0** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Qashqadaryo investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-iyun oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalar hajmi **12952,3** ming AQSH dollarini tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan **15,9** % ga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **12,9** % ga yetdi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-iyun oylari)




2023- yil yanvar-iyun oylarida mashina va transport asbob-uskunalar importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2447,7** ming AQSH dollariga kamaydi. Ushbu tovarlarni Qashqadaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR – **8291,2** ming AQSH dollari (**64,0** %), Belarus Respublikasi - **468,2** ming AQSH dollari (**3,6** %) va Turkiya – **506,6** ming AQSH dollari (**3,9** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-iyun oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **56079,3** ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **63,8** % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **55,7** % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-iyun oylari ulushi, % da)

17922,6 ming
AQSH doll.
ulushi – 31,9 %

8078,7 ming
AQSH doll.
ulushi – 14,4 %

4354,2 ming
AQSH doll.
ulushi – 7,8 %



XXR



Turkiya



Rossiya
Federasiyasi

8793,6 ming
AQSH doll.
ulushi – 15,7 %

2341,9 ming
AQSH doll.
ulushi – 4,2 %



Latviya



Koreya
Respublikasi




2023- yil yanvar-iyun oylarida sanoat mahsulotlari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **31785,3** ming AQSH dollariga kamaydi. Ushbu tovarlarni Qashqadaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR- **17922,6** ming AQSH dollari (**31,9** %), Turkiya - **8078,7** ming AQSH dollari (**14,4** %) va Rossiya Federasiyasi – **4354,2** ming AQSH dollari (**7,8** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2023- yil yanvar-iyun oylari ulushi, % da)



2023- yilning yanvar-iyun oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **1185,0** ming AQSH dollarini yoki jami import hajmining **1,2** % ini tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (**83,0** %), ga tegishli bo'ldi.